

FRANSUZ TILI TERMINOLOGIYASINING ONOMASTIK XUSUSIYATLARI TO'G'RISIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10279369>

Nasimova Fotima Sodiq qizi

Buxoro davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti

Fransuz filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

f.s.nasimova@buxdu.uz

Ahmadov Qamariddin Asliddin o'g'li

Buxoro davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va fransuz tilshunos olimlarning terminologiya, termin va ularning etimologik jihatlarini o'r ganuvchi bo'lim onomastikaga oid jihatlar o'r ganildi. Shu bilan birgalikda fransuz tiliga oid terminlarning onomastik xususiyatlariga ham munosabatlar bildirildi.

Kalit so'zlar

onomastika, onomastik lug'at, atama, antroponim, toponim, teonimiya, astroponim, definitsiya

"Termin" tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun yetarli deb o'yaymiz:

1) Termin-umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'l mish ishlab chiqarish fan-texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmalardir.

2) Termin-konkret narsa-predmet, ashyo yoki mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir.

3) Termin uchun muayyan ta'rif (definitsiya) zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko'rsatish mumkin.

Demak, terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Har qanday tushunchalar

tizimiga muayyan terminlar to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi.

Termin grekcha "terminus" so'zidan olingan bo'lib, chek, chegara degan ma'noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z hisoblanadi. Terminologiya-terminlar haqidagi ta'llimot va terminlar majmuyi degan ma'nolarni anglatadi.⁷⁰

Termin so'zining o'rnida ba'zida atama, istiloh so'zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to'g'ri emas. Atama termin so'ziga nisbatan tor tushunchalarni bildiradi. Istiloh so'zi arabchadir. Uni omma tushunmaydi va me'yorga aylangan.

Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, berilgan tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi. Shunday ekan, har bir tilda terminologiya va ularning onomastik xususiyatlari ham olimlar tomonidan o'rganiladi.

Onomastika-yunoncha so'z bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma'noda qo'llanadi.

1) Ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi;

2) Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.⁷¹

"Onomastika" deb nomlanuvchi fanning asosiy vazifasi mazkur sohaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o'rganish metodlari va boshqalar haqida talabalarga zarur tushuncha va ma'lumotni berishdan iboratdir.⁷²

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek, tildagi barcha atoqli otlar yig'indisi o'zida ifodalaydi.

"Onomastika" fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

"Onomastika" fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim) larga ajratadi:

Antropomin-kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari), toponim-geografik obyektlarning atoqli nomlari, teonimya-turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, zoonim-hayvonlarga qo'yiladigan shartli atoqli nomlar,

⁷⁰ <https://fayllar.org/til-va-terminologiya.html>

⁷¹ Бегматов Э., Улуков Н. Узбек ономастикаси терминларининг изохли лугати. –Наманган, 2006. Б.60.

⁷² Bayramali Kilichev Onomastika [Matn]: o'quv qo'llanma/ Bayramali Kilichev-Buxoro:2023. B.6

laqablar, kosmonim-fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqatgan nomlari, astroponim-ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuyini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi realionimlar(avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan mifonimlar xayoliy-to'qima obyektlarning nomlarini bildiradi.

Nazariy onomastika til va nutqdagi abadiy dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish aholida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomopoetikaning asosiy vazifasidir.

Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkrinsiya, transliteratsiyasi, an'anaviy tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, begona nomlarni o'z tilida qaanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi.⁷³

Maqolada termin va onomastika haqida yetarlicha ma'lumotlar berildi. Hozir fransuz tilidagi terminlar va ularning onomastik jiharlariga to'xtalamiz. Fransuz tilidagi terminlar ham ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra, ma'lum guruhlarga bo'linadi. Bu terminlarning ba'zilari esa neologizmlar sifatida fransuz tiliga boshqa tillardan kirib kelgan. Masalan, (neologisme: spoutnik, portable, democratiser)

Musiqaga oid terminlar: akkardeon (accordion), flajolet (flageolet), benefis (benefice), ansambl (ensemble).....

"Flageolet"-birinchi ma'nosida puflama musiqa asbobi bo'lib, bo'yamasiga chalinadigan yuqori registrli fleyta, ikkinchi mazmunda organ, fisgarmoniya registri; uchinchi ma'nosida torli sozlarning o'ziga xos tembrga ega, toriga barmoq bilan sal tegish orqali hosil qilinadigan yuqori ton obertonlar flajolet cholg'usi tovushini eslatgani uchun shunday nom olib, termin sifatiga kirgan. Mana musiqashunoslikka oid termin bilan tanishdik. Uning onomastik xususiyatlari ham ya'ni unga nega aynan flageolet degan nom berilishi, etimologik jihatni ham toriga barmoq bilan sal tegish orqali, hosil qilingan yuqori ton obertonlar flajolet cholg'usini eslatgani uchun shunday nom olib, fanga termin sifatida kelgan degan izoh bilan ifodalangan.

⁷³ Bayramali Kilichev Onomastika [Matn]: o'quv qo'llanma/ Bayramali Kilichev-Buxoro:2023.B.8

Akkardeon-1) chap qo'l tomonda tayyorakkordlari bo'lgan tilchali musiqa asboblarining umumiy nomi bo'lib, 1829-yilda paydo bo'lgan. Bir tugmachasi bosilsa, butun akkord sadolangan. Yana bir mazmuni garmon: 2) o'ng qo'l tomonda fortepiano toifasidagi klaviaturasi bo'lgan bayansifat cholg'uning nomi. Mazkur musiqa asbobi O'zbekistonda 50 yillardan professional va havaskorlik ansamblari tarkibidan o'rinnolgan.

Bu atamada ham onomastik xususiyatlar, ya'ni paydo bo'lishi 1829-yilda bo'lgan degan jumla bilan yoritilgan.

San'atga oid terminlar: cinema, scenario, artist, maquillage, studio....

"Maquillage" fransuz tilida shunday izohlanadi: " Il est destine a obtenir un rendu satisfaisant de la peau a l'ecran, mais surtout, dans ce film de science-fiction.⁷⁴

Artist (artiste)-leksemasidan termin shakliga kirgan. Fransuz tili leksikasiga lotin tilidan artistaning kasb-hunar, san'at, bilimdon, ma'nolari mavjud. Darmatik spektakl, kinoda rol, opera va balet partiyalari, estrada konsert va sirk nomerlari ijrochisi; teatr va kinoda aktyor, aktrisa; keng ma'noda san'atning muayyan sohasidagi ijodkor.

Biologiya oid terminlar: fourmi, fleur, fleur de serisier, artere coronaire, estomac, pylore.....⁷⁵

Pylore-(anat) qorin bo'yni, (qorinning o'n ikki barmoqli ichakka o'tadigan joyi)
Estomac-oshqozon

Bundan tashqari hayvonlar ham umumiy va farqli jihatlariga qarab guruhlarga bo'linishi ham "LAROUSSE" kitobida ko'rsatilgan. Maqolani faktlar bilan boyitish jarayonida kuchuklarning tashqi ko'rinishidagi belgilarga qarab ham ularni fanga ma'lum bir terminlar orqali onomastik xusususiyatlari ifodalangan.

Masalan, carlin, cocker spaniel, Braque de Veymar, Doberman, berger allemande, Labrador, husky, levrier de afghan, teckel, epagnuel Breton, grand bleu de gasconge, fox-terrier...⁷⁶

Fox terrier iti judayam tulkiga o'xhashi aniqlangan. Shuning uchun ham unga nom berishda **fox** tulki degan ma'noni anglatgani sabali ham aynan shu so'zdan foydalanilgan.

Tabiatdagagi ilonlar ham ma'lum bir jihatlari bilan fanga onomastik xususiyatlariga asoslanib, kiritilgan.

⁷⁴ Larousse. 21. Rue du Montparnasse 75283 Paris Cedex 06. www.editions-larousse.fr B.203

⁷⁵ Larousse. 21. Rue du Montparnasse 75283 Paris Cedex 06. www.editions-larousse.fr B.388

⁷⁶ Larousse. 21. Rue du Montparnasse 75283 Paris Cedex 06. www.editions-larousse.fr B. 195.

Masalan, couleuvre americane, couleuvre arc-an-ciel, crotal cornu, anaconda, mamba vert, naja ou serpent a lunettes, serpent marine⁷⁷

Serpent marine-bu ilon faqatgina dengizda yasharkan. Shuning uchun ham uning nomlanishida marine, ya'ni dengiz so'zi asosiy rol o'ynaydi.

Naja ou serpent a lunettes- bu turdag'i ilonlar shakl jihatidan ko'zlar i yaqqol ko'riniib turgani sababli unga shunday nom berilgan. Lunettes -fransuzcha ko'zoynak degan ma'noni anglatishi hammaga a'yon.

Kapalaklar ham turlicha nom asosida nomlangan.

Masalan, citron de provence, sphinx du laurier-rose, sphinx tete-de-mort, armandie, papillon-chouette, vice-roi, grand monarque...⁷⁸

Citron de provence- bu turdag'i kapalaklar rang jihatdan yorqin sariq, ya'ni limonning rangiga o'xshagini sababli ham shunday nom olgan. Shuning uchun ham uni nomlashda citron so'zining lug'aviy ma'nosidan foydalanilgan. Ko'riniib turibdiki, fan sohasiga terminlar kiritilar ekan, ularning onomastik jihatlari chuqur o'rganilib, keyin lug'atlardan joy oladi. Shu orqali tildagi barcha qulayliklar yaratilaadi, shunisi muhimki, bunday terminlar hamma uchun tushunarli bo'lib xizmat qiladi.

Zamon rivojlanar ekan, terminlar ham keng miqyosda fandan, mazkur sohadan o'rinni egallaydi. Oxirgi 100 yillikda avtomobilsozlik sohasi ham mamlakatlarda keskin avj oldi, shu bilan birgalikda bu sohaning terminologiyasi ham rivojlandi.

Boeing 777 (1995). Plus gros bireacteur du monde, le boeing 777 peut transporter de 305 a 440 passagers sur des distances allant de 7340 a 13670 km selon les versions.

O'simliklar ham onomastikaning rivojlanishi bilan terminlar asosida o'rganildi.

TABAC- [taba] 1. Planie annuelle herbacee, dont l'espece principale est cultivee pour ses feuilles riches en nicotine.⁷⁹

Bundan ko'riniib turibdiki, hozirgi kundagi nikotin, narkotik kabi tushunchalar ham shu birgina o'simliklarning nomlanishi negizida terminologiyadan o'rinni olganiga yaqqol dalil.

TABAGISME. Le tabac est consommé le plus souvent sous forme de cigarettes, mais aussi de cigars ou au moyen d'une pipe; il est, plus rarement, prise ou chique.

⁷⁷ Larousse. 21. Rue du Montparnasse 75283 Paris Cedex 06. www.editions-larousse.fr B.200

⁷⁸ Larousse. 21. Rue du Montparnasse 75283 Paris Cedex 06. www.editions-larousse.fr B.739

⁷⁹ Larousse. 21. Rue du Montparnasse 75283 Paris Cedex 06. www.editions-larousse.fr B.986.

Xulosa o'rnida, har bir fan, har bir sohada juda katta terminologik boylik bor. O'ylaymanki, bu terminlar fanning, sohaning rivojini belgilaydigan muhim bir jihatdir. Jumladan, fransuz tili terminologiyasining onomastikasi ham keng leksik hududni qamrab olganligini aytish mumkin.

Shuningdek, qaysi bir soha, qaysi bir til bo'lmasin uni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilmoqchi bo'lsa, o'sha tilning tarixiy ildizlari, shakllanishi taraqqiyot bosqichlari bilan birqalikda leksikasiga, atama va terminlariga qolaversa, ularning milliy-madaniy, qiyosiy-tarixiy xususiyatlariga ham murojaat qilish joiz bo'ladi.

Va nihoyat, fransuz tilshunoslida tarmoqlar terminologiyasining qator sohalarini o'rganish bo'yicha yetarli tajribalar to'plangan, qator sohalar terminlari ilmiy tahlildan o'tkazilgan va ularning fransuz va o'zbek adabiy tillaridagi o'rni, mavqeyi tasvirlangan bo'lsa-da, mazkur sohadagi barcha tadqiqotlar poyoniga yetgan, unga xos barcha muammolar to'la o'z yechimini topgan,- degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Qolaversa, terminologiya borasida, ayniqsa, terminologiyaning onomstikasi bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Mazkur maqolada esa ba'zi bir jihatlari ochib berildi, xolos. Albatta, ularning ikki noqardosh til doirasidagi terminlarning etimologik tadqiqi tilshunoslik ravnaqiga muayyan darajada yo'l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhmedova Gulnoza Hayot Qizi. (2022). Literary language and classification of functional styles in French. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 8, 19–22. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/1531>
2. Bayramali Kilichev Onomastika [Matn]: o'quv qo'llanma/ Bayramali Kilichev-Buxoro:2023. B.6
3. Bobokalonov, O. Lexico-semantic features of medical plants in uzbek and french languages. Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences | Published by the Open Conference, 19, 2021-P. 54-56.
4. Bobokalonov, O. (2022). Текст научной работы на тему «Прагмалингвистическое изучение французско-узбекской терминологии лекарственных растений». ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 7(7). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4782

5. Ikromova L.B, Nabiyeva Z. Rasulova M. "The similarities and differences of proverbs with other genres". Scopus. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020 ISSN: 1475-7192

<https://www.psychosocial.com/article-category/issue-6/>

6. Khafizovna, K. M. (2022). Problems of Translation of Natural Phenomena in French and Uzbek. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 1(4), 172-175.

7. Larousse. 21. Rue du Montparnasse 75283 Paris Cedex 06. www.editions-larousse.fr.388

7. Nasimova, F. (2023). TERMIN VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.Uz*), 42(42). извлечено от

https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10982

8. Ostonovich, B. O., & Ilkhomovna, R. F. (2023). Discourse Analysis of the French Terminosphere of Astronyms. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 2(5), 80-84.

9. Tuyboeva, S. (2023). THE INTERPRETATION OF UNUSUAL CASES IN SENTENCE CONSTRUCTION IN THE FRENCH LANGUAGE. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 344-347.

10. Бегматов Э., Улуков Н. Узбек ономастикаси терминларининг изохли лугати. -Наманган, 2006. Б.60

11. Узбек тилининг имло лугати "Иктисадиет ва хукук дунёси" нашриёт уйи Тошкент-1998

12. Насимова, Ф. (2023). O'ZBEK TILI FONETIKASI VA FONOSTILISTIKASINING O'ZIGA XOSLIKHLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.Uz*), 36(36). извлечено от

https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10090

13. Насимова, Ф. (2023). Classification and Phonological Opposition of Vowels in French Language. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.Uz*), 36(36). извлечено от

http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10102

14. Рустамова, Ф. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF FRENCH AND UZBEK FAIRY TALES (ON THE EXAMPLE OF THE FAIRY TALES "THREE BROTHERS ARE HEROES" AND "THE CAT IN BOOTS"). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 14(14).

15. Рустамова, Ф. И. (2022). ПОНЯТИЕ ДИСКУРСИВНОГО АНАЛИЗА АСТРОНОМИЧЕСКИХ И КОСМОЛОГИЧЕСКИХ СЛОВ. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 278-281.

16. <https://fayllar.org/til-va-terminologiya.html>